NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 28-oktabr | 264-5-74-Q/25 | Nurota tumani hokimligi

Nurota tuman aholisining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2025-yil 29-sentyabrdagi 17-0701-141219-sonli xatiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2025-yil 29-sentyabrdagi 17-0701-141219-sonli xati inobatga olinsin;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tadbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Nurota tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Nurota tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining tuman hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

Xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlatulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 200 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 5,3 foiz (107 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 2,5 foiz (5 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 39,5 foiz (79 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 2,0 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 2,0 foiz (4 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,5 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

nogironligi bo‘lgan shaxslar toifasi uchun - o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar

hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun- ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

4. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.12.2019-yildagi 971-sonli Qarori talablariga asosan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun tashkilot va korxonalar 2025-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish o‘rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi https://my.mehnat.uz web sayti orqali zaxiralanib qo‘yilishini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlanguniga qadar tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tumandagi tashkilot va korxonalar https://my.mehnat.uz web sayti orqali belgilangan ish o‘rinlarini zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilsin;

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar, ya’ni 2026-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan keyin 10 kundan kechikmay https://my.mehnat.uz web sayti orqali ish o‘rinlari zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilsin.

Tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etib borsin.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga-har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkurqarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibdajavobgarlikka tortiladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Nurota tumani hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

9. Nurota tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i I.Amonovga:

O‘n kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Nurota tumani hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

10. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo`riyev zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Fayziyev**

Nurota tumani hokimining
2025-yil 28-oktabrdagi
264-5-74-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Nurota tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot-ning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar-ning umumiy soni	Shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladi-gan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogiron-ligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik dan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestrida-gi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalanga n yetim, ota-ona qaramog‘i-dan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosi-dan jabrlan-gan shaxslar
JAMI:			**6798**	**110**	**187**	**105**	**2**	**75**	**0**	**4**	**1**
1	Nurota tumani 19-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	306948334	33	0	1	1					
2	Nurota tumani 12-umumiy o`rta ta`lim maktabi davlat muassasasi	206894248	42	0	1	1					
3	Navoiy viloyati Nurota tumani 31 - sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894359	45	0	2	1		1			
4	Nurota tumani 5-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi	203291691	60	2	3	1		2			
5	Nurota tumani 12-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207088781	31	0	1	1					
6	Navoiy viloyati Nurota tumani 51-sonli	206894524	45	0	2	1		1			

	umumiy o`rta ta`lim maktabi										
7	Navoiy viloyati Nurota tumani 18-sonli xorijiy tillarni chuqurlashtirib o`qitishga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta`lim maktabi	203181529	132	0	3	1		2			
8	Nurota tumani 13-umumiy o`rta ta`lim maktabi davlat muassasasi	206894255	55	1	3	1		2			
9	Navoiy viloyati sport boshqarmasi nurota tuman sport maktabi	206926371	95	0	3	1		2			
10	Nurota tumani 35-umumiy o'rta ta`lim maktabi	206894381	41	1	2	1		1			
11	Navoiy viloyati Nurota tumani 53-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894549	37	0	1	1					
12	Nurota tumani 1-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207023277	46	1	2	1		1			
13	Navoiy viloyati Nurota tumani 24 - sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206884884	39	0	1	1					
14	Nurota tumani 26-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894327	52	0	2	1		1			
15	Nurota tuman 48-umumiy o`rta ta`lim maktabi davlat muassasasi	206894492	38	0	1	1					
16	Navoiy viloyati Nurota tumani 19-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	207129594	85	2	3	1		2			
17	Nurota tumani 14-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894263	62	0	3	1		2			
18	Navoiy viloyati Nurota tumani 37-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894406	34	0	1	1					
19	Navoiy viloyati Nurota tumani 40-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894438	45	0	2	1		1			
20	Navoiy viloyati Nurota tumani 22-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203258478	94	0	3	1		2			
21	Navoiy viloyati Nurota tumani 17-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894287	39	0	1	1					
22	Nurota tumani 6-sonli davlat	207023284	34	1	2	1		1			

	maktabgacha ta`lim tashkiloti										
23	Navoiy viloyati Nurota tumani 42-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	200031050	73	3	3	1		2			
24	Nurota tuman yo'llardan foydalanish	200030923	155	2	3	1		1		1	
25	Navoiy viloyati Nurota tumani 3-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203181536	83	0	2	1		1			
26	Navoiy viloyati Nurota tumani 41-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894445	35	0	1	1					
27	Sog`liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo`mitasining navoiy viloyati boshqarmasi nurota tuman bo`limi	200030947	58	5	3	1		2			
28	Nurota tumani 5-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207088774	36	0	1	1					
29	Nurota tuman "barkamol avlod" bolalar maktabi	207126084	54	0	2	1		1			
30	Nurota tumani 38-umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894414	40	3	2	1		1			
31	Nurota tuman 13-oilaviy poliklinika davlat muassasasi	311842766	54	0	1	1					
32	Nurota tuman Dehibaland oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842631	31	0	1	1					
33	Nurota tuman 15-oilaviy poliklinika davlat muassasasi	311842774	33	0	1	1					
34	Nurota tumani 21-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	307808847	20	0	1	1					
35	Nurota davlat o'rmon xo'jaligi	305062988	71	2	2	1		1			
36	Nurota tumani 4-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207023300	38	0	1	1					
37	O`zbekiston respublikasi yoshlar ishlari agentligining nurota tuman yoshlar ishlari bo`limi davlat muassasasi	309217734	35	0	1	1					

38	Nurota tuman Mustaqillik oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842814	35	0	1	1					
39	Nurota tumani 2-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207023317	40	0	1	1					
40	Nurota tuman A.Navoiy oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842591	24	0	1	1					
41	Navoiy viloyati Nurota tumani 20-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203181489	52	0	2	1		1			
42	Navoiy viloyati Nurota tumani 32-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203289487	80	0	3	1		2			
43	Navoiy viloyati Nurota tumani 50-umumiy o`rta ta`lim maktabi davlat muassasasi	205716199	58	3	3	1		1		1	
44	Navoiy viloyati Nurota tumani 16-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894270	38	2	2	1		1			
45	Navoiy viloyati Nurota tumani 23-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894303	43	0	1	1					
46	Nurota tumani 13-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207002801	45	0	1	1					
47	Navoiy viloyati Nurota tumani 44-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894460	32	2	1	1					
48	Nurota tumani madaniyat va sport ishlari bo'limi	200031004	50	2	2	1		1			
49	Navoiy viloyati Nurota tumani 2-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203188938	85	1	3	1		2			
50	Nurota tumani 47-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894484	32	1	1	1					
51	Nurota tuman obodonlashtirish boshqarmasi	200030915	205	1	4	1		2		1	
52	Nurota tuman 1-son politexnikumi davlat muassasasi	206965070	81	2	2	1		1			
53	Nurota tuman Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi davlat muassasasi	311842742	100	0	2	1		1			

54	Navoiy viloyati Nurota tumani 28-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206884900	31	3	1	1					
55	Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalari agentligi tizimidagi nurota tuman ixtisoslashtirilgan maktabi	309862550	59	2	2	1	1				
56	Nurota tuman Jilontamg'ali oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842694	25	0	1	1					
57	Nurota tuman maktabgacha va maktab ta`limi bo‘limi	200030979	67	2	2	1		1			
58	Nurota tumani 3-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti davlat muassasasi	207023292	32	0	1	1					
59	Navoiy viloyati Nurota tumani 7-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203188945	59	0	3	1		2			
60	Nurota tuman Suvliq oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842648	20	0	1	1					
61	Nurota tuman 2-son politexnikumi davlat muassasasi	203360954	88	3	2	1		1			
62	Navoiy viloyati Nurota tumani 34-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	205784495	101	0	2	1		1			
63	Navoiy viloyati Nurota tumani 6-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	207129659	81	0	2	1		1			
64	Nurota tumani 9-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207088798	26	0	1	1					
65	Navoiy viloyati Nurota tumani 46-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206884917	29	0	1	1					
66	Navoiy viloyati Nurota tumani 21-sonli umumiy orta ta`lim maktabi	206894294	30	0	1	1					
67	Nurota tuman 14-oilaviy poliklinika davlat muassasasi	311842781	40	0	2	1		1			
68	Nurota tumani 17-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	306949063	29	1	1	1					
69	Navoiy viloyati Nurota tumani 49-sonli	206894500	39	3	2	1		1			

	umumiy o`rta ta`lim maktabi										
70	Nurota tumani axborot-kutubxona markazi	306699859	24	2	1	1					
71	Nurota tuman Yangi obot oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842609	28	0	1	1					
72	Nurota tuman Qizilcha oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842710	21	0	1	1					
73	Navoiy viloyati Nurota tumani 9-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203211860	55	1	2	1		1			
74	Nurota tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206894310	39	0	2	1		1			
75	Navoiy viloyati Nurota tumani 4-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894209	68	0	2	1		1			
76	Nurota tumani 20-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	306974381	24	1	1	1					
77	Nurota tumani kasbiy ko`nikmalar markazi davlat muassasasi	206755300	62	3	2	1		1			
78	Nurota tumani 52-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894532	39	0	1	1					
79	Nurota tumani 18-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	306974263	21	0	1	1					
80	Navoiy viloyati Nurota tumani 43-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894453	43	3	2	1		1			
81	Nurota tumani 10-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	309020356	35	0	1	1					
82	Navoiy viloyati Nurota tumani 27-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203181504	83	0	2	1		1			
83	Navoiy viloyati Nurota tumani 15-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206888475	46	0	2	1		1			
84	Navoiy viloyati Nurota tumani 30-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894342	33	1	1	1					
85	Nurota tumani 8-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207002793	46	0	2	1		1			

86	Nurota davlat o`rmon-ovchilik xo`jaligi	207314365	40	1	1	1					
87	Navoiy viloyati Nurota tumani 11-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203239327	65	0	2	1		1			
88	Nurota tumani 16-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	305934313	44	1	2	1		1			
89	Navoiy viloyati Nurota tumani 10-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894231	46	0	1	1					
90	Navoiy viloyati Nurota tumani 5-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203181496	67	0	2	1		1			
91	Nurota tumani 15-Sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	305682991	25	0	1	1					
92	Nurota tuman Soykechar oilaviy shifokorlik punkti davlat muassasasi	311842624	23	0	1	1					
93	Navoiy viloyati Nurota tumani 29-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894334	34	0	1	1					
94	Navoiy viloyati Nurota tumani 39-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894421	32	0	1	1					
95	Nurota tumani tibbiyot birlashmasi	200030986	1367	41	10	3	1	4		1	1
96	Nurota tumani 8-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894224	39	0	2	1		1			
97	Navoiy viloyati Nurota tumani 36-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894398	48	0	2	1		1			
98	Navoiy ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati	202588203	99	2	3	1		2			
99	Navoiy viloyati Nurota tumani 33-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894366	55	0	2	1		1			
100	Nurota tumani 45-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206894477	45	0	2	1		1			
101	Nurota tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	201273644	29	0	2	1		1			
102	Nurota tumani 7-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207023332	49	0	2	1		1			
103	Nurota muruvvat nogironligi bo`lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi	201150267	268	3	3	1		2			

Nurota tumani hokimining
2025-yil 28-oktabrdagi
264-5-74-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Nurota tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot-ning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Jami:			**943**	**14**	**13**	**2**	**3**	**4**	**4**
1	Premier Tekstile MCHJ	305356114	437	4	4	1	1	1	1
2	Istiqlol qoraqo‘l nasilchilik MCHJ	200030131	127	5	3	0	1	1	1
3	Ashraf MCHJ	201934896	155	3	3	0	1	1	1
4	Nurota qoraqo‘l nasilchilik MCHJ	200030170	224	2	3	1	0	1	1